Xususan, M. Romonovskiy fikriga ko'ra: "Byudjet xarajatlari – bu davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini vazifa va funksiyalarini moliyalashtirish uchun tegishli byudjet darajasida ko'zda tutilgan pul mablag'laridir" [3].

Rossiyalik iqtisodchi, professor O. Suxarev barcha darajadagi byudjet daromadlari manbalarini tubdan o'zgartirish, byudjet mexanizmini rag'batlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarini joriy etish tizimini ilgari suradi [4].

O. Serebryakova ta'kidlaganidek: "Hududlarni moliyaviy ta'minlash mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimini isloh qilishning eng qiyin va dolzarb masalalaridan biri" [5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan G. Qosimova: "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mahalliy byudjetning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarini ko'paytirish, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini ko'paytirish, keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni mablag' bilan ta'minlash manbalari bilan oqilona uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi. Davlatning ijtimoiy sohada siyosati bevosita mahalliy byudjetlar orqali ustun ravishda amalga oshirib boriladi", – deb ta'kidlaydi [6].

N. Primovanning fikricha hududiy moliyaviy siyosatning tarkibi sifatida byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishda byudjet daromadlarini shakllantirishdan hududiy manfaatdorlikni va xarajatlarni taqsimlashni liberal-lashtirishni ta'minlash asosiy omil bo'lishi lozim [7].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar jamoasi tomonidan ilgari surilgan fikr mulohazalarda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi samaradorligini oshirishda hozirgi sharoitdagi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Ushbu omillar kontekstidagi islohotlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishda hudud iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish tizimini rag'batlantiruvchi moliyaviy mexanizmini qo'llash imkoniyatlarini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi samaradorligini ta'minlash, byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalarining muhimligini e'tiborga olib, Jizzax viloyatining mahalliy byudjeti xarajatlari ijrosiga baho beramiz. Buning uchun 2022-yilda viloyat mahalliy byudjeti xarajatlari ko'rsatkichlarining bajarilishini 2020 va 2021-yillarga taqqoslagan holda tahlil qilib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida Jizzax viloyati mahalliy byudjetining xarajatlari 6-ilovaga muvofiq 2 551,8 mlrd so'mni tashkil etishi ma'lumot uchun qabul qilingan bo'lib, ular 1 727,2 mlrd so'mlik daromad hamda 824,6 mlrd so'mlik respublika byudjetidan Jizzax viloyati mahalliy byudjetiga ajratiladigan, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar hisobiga qoplanishi belgilangan [8].

Yil davomida mahalliy byudjet xarajatlari rejasi 1 251,6 mlrd so'mga oshirilib, aniqlangan reja 3 803,4 mlrd so'mni, xarajatlari ijrosi esa 3 928,5 mlrd so'mni yoki aniqlangan reja ko'rsatkichlariga nisbatan 103 foizni tashkil etgan (1- va 2-jadvallar).



1-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetining 2022-yildagi xarajatlari ijrosi to'g'risida tuman (shahar)lar kesimida ma'lumot (mlrd so'mda)

№	Hudud byudjetlari	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Kassa	Bajarilishi	
					Farqi (+;-)	Foizda
1.	Arnasoy tumani	67,1	89,8	91,2	1,3	101
2.	Baxmal tumani	150,5	216,7	219,2	2,5	101
3.	G'allaorol tumani	185,1	273,7	280,5	6,8	102
4.	Sh. Rashidov tumani	219,9	319,0	330,6	11,6	104
5.	Do'stlik tumani	94,0	141,7	147,6	5,9	104
6.	Zomin tumani	193,2	264,7	272,8	8,1	103
7.	Zarbdor tumani	104,8	149,7	155,5	5,8	104
8.	Zafarobod tumani	72,0	99,2	101,4	2,2	102
9.	Mirzacho'l tumani	79,7	105,9	107,1	1,2	101
10.	Paxtakor tumani	89,4	126,6	128,5	2,0	102
11.	Forish tumani	111,9	151,7	153,5	1,8	101
12.	Yangiobod tumani	55,2	72,4	73,6	1,2	102
13.	Jizzax shahar	152,8	229,2	239,1	9,9	104
14.	Viloyat byudjeti	976,4	1 563,1	1 627,8	64,7	104
	Jami xarajat	2 551,8	3803,4	3928,5	125,1	103

2-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetining 2022-yildagi xarajatlari ijrosi to'g'risida soha va yo'nalishlar kesimida ma'lumot (mlrd so'mda)

№	Soha va yo'nalishlar	Tasdiqlangan reja	Aniqlangan reja	Kassa ijrosi	Bajarilishi (foizda)	Ulushi (jami xarajatga nisbatan)
1.	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	1 594,0	2172,4	2194,1	101	55,8
	Shundan					
1.1	Ta'lim	293,3	454,7	452,9	100	11,5
-	maktabgacha ta'lim	97,9	218,6	216,3	98	5,5
-	umumta'lim	193,6	233,2	233,7	100	5,9
-	kadrlar tayyorlash	1,8	2,9	2,8	99	0,1
1.2	Sog'liqni saqlash	779,1	994,0	996,0	100	25,3
1.3	Madaniyat	32,5	38,5	43,7	113	1,1
1.4	Sport	50,5	70,7	70,9	100	1,8
1.5	Fan	1,7	2,0	2,0	100	0,1
1.6	Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	435,0	611,8	627,9	103	15,9
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	353,5	391,5	408,8	104	10,4
	Shundan:					
2.1	Suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	84,7	122,6	121,3	99	
2.2	Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish	123,0	146,3	158,4	108	



2.3	Tabiatni muhofaza qilish	10,0	10,0	10,0	100	
2.4	Uy-joy kommunal ishlari	3,0	3,1	3,1	100	
3.	Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	272,0	370,6	386,0	104	9,8
4.	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	173,7	273,5	294,2	108	7,5
5.	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	47,6	49,3	69,4	141	1,8
6.	Zaxira jamg'armalari	24,5	96,1	95,9	100	2,4
7.	Boshqa xarajatlari	86,4	449,9	480,1	107	12,2
	JAMI	2 551,8	3803,4	3928,5	103	100

Hisobot davrida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetdan 2 194,1 mlrd so'm yoki umumiy xarajatlarning 55,8 foizi miqdorida mablag' sarflangan.

Ijtimoiy xarajatlarning asosiy qismi (20,6 foizi)ni tashkil etgan ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va ularni rivojlantirish xarajatlariga mahalliy byudjetdan 452,9 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan, xarajatlari 2020 yilga nisbatan 144,4 foizga o'sgan (3-jadval).

3-jadval: Jizzax viloyati mahalliy byudjetidan 2020–2022-yillarda ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar ma'lumot (mlrd so'mda)

№	Sohalar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O'zgarishi	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Maktabgacha ta'lim	66,3	157,5	216,4	3,2 baravar	137,4 foiz
2.	Umumta'lim	161,8	264,8	233,7	144,4 foiz	88,4 foiz
3.	Kadrlar tayyorlash	1,4	1,9	2,8	2 baravar	149,5 foiz
	Jami ta'lim xarajati	229,5	423,8	452,9	197,3 foiz	106,8 foiz

2022-yilda maktabgacha ta'lim tizimiga mahalliy byudjetdan 218,6 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lib, hisobot davrida ushbu mablag'larning 216,3 mlrd so'mi (98,9 foizi) sarflangan.

2020-yilda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 201 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 231 taga yetgan. Viloyatdagi mavjud 123,2 ming nafar 3–7 yoshdagi bolalarning 77,5 foizi maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olingan. Shundan, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida 59,9 ming, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 35,5 ming nafarni tashkil qilgan. Nodavlat shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan subsidiya ajratilishi natijasida qamrov darajasi 2020-yilga nisbatan 13 foizga o'sgan.

2022-yilda umumta'lim sohasiga 233,2 mlrd so'm ajratilgan bo'lib, yil yakuni bo'yicha ushbu mablag'lar to'liq moliyalashtirilgan. Jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda ish xaqiga ajratmalar uchun 63,6 mlrd so'm, boshqa xarajatlarga 82,1 mlrd so'm yo'naltirilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan sohani rivojlantirish bilan bog'liq dasturlarga ham mablag'lar ajratilishi ta'minlangan. Masalan, xalq ta'limi muassasalarini keng polosali Internet tarmog'iga ulash uchun 2,1 mlrd so'm ajratilgan. 44 maktabga interaktiv doskalar hamda 13 ta maktabga robototexnika vositalarini xarid qilish ishlari amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida" 2022-yil 14 apreldagi PF–106-sonli Farmoniga asosan 2 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda 10 ta ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilgan bo'lib, 2022-yilda ushbu maktablarni joriy saqlash xarajatlariga 11,2 mlrd so'm mablag' ajratilgan.

2022-yilda kadrlar tayyorlash sohasiga jami 2,8 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan. Ushbu mablag'larning 1,6 mlrd so'mi ish haqi va ajratmalar uchun sarflangan.

Hisobot davrida ilm-fanni moliyalashtirish va rivojlantirish xarajatlari uchun 2,0 mlrd so'm yoki 2020-yilga nisbatan 12 foiz ko'proq mablag' sarflangan.

Madaniyat sohasiga 2022-yilda jami 43,7 mlrd so'm (2020-yilga nisbatan 21,3 mlrd so'mga yoki 195 foizga ko'p) mablag' ajratilgan. Jumladan, xarajatlarning 0,6 mlrd so'mi matbuot xizmatlariga, 8,7 mlrd so'mi teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari va 10,4 mlrd so'mi madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlariga, 14,4 mlrd so'mi madaniy meros agentligining hududiy boshqarmasini saqlash hamda madaniy boyliklarni qayta ta'mirlash ishlari sarflangan (5-jadval).



5-jadval: 2020–2022-yillarda viloyat mahalliy byudjetidan madaniyat sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar (mlrd so'mda)

№	Soha va yo'nalishlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	O'zgarish(foizda)	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarni saqlash xarajatlari	4,6	6,4	7,2	139%	113%
2.	Muzeylar, ko'rgazmalar hamda ko'rgazma zallarini saqlash xarajatlari	1,4	2,3	2,3	157%	100%
3.	Madaniyat saroylari va markazlarini saqlash xarajatlari	7,6	9,2	10,4	121%	113%
4.	Teatrlar, musiqa jamoalari, konsert tomosha muassasalari xarajatlari	6,4	7,5	8,7	117%	116%
5.	Matbuot xizmatlari	0,5	0,6	0,6	120%	100%
6.	Kinematografiya agentligining hududiy bo'limini saqlash xarajatlari	0	0	0,1		
7.	Boshqa madaniy chora-tadbirlar va muassasalari xarajatlari	5,5	7,8	14,4	142%	185%
	Jami xarajat	22,4	33,8	43,7	151%	129%

Sohaga yo'naltirilgan mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 2022-yil davomida viloyatdagi 37 ta madaniyat markazida 2 mingga yaqin turli madaniy-ma'rifiy, konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilgan. Madaniyat markazlarida vokal, estrada, raqs, xalq cholg'u-asboblari, gimnastika, tasviriy va amaliy san'at, badiiy o'qish, qo'g'ir-choqbozlik, drama va havaskorlik teatri yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha to'garaklar tashkil etilib, jami to'garaklar soni 201 taga yetkazilgan.

Shuningdek, 11 ta ashula va raqs ansambllari ishtirokida 85 ta konsert-tomosha tadbiri o'tkazilgan. Madaniyat boshqarmasi tizimidagi konsert-tomosha tashkilotlari tomonidan jami 2 mingdan ziyod tadbir tashkil etilgan.

Viloyat musiqali drama va qo'g'irchoq davlat teatrlarida jami 346,2 million so'm mablag' hisobiga "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida, davlat buyurtmasi bo'yicha 2 ta spektakl sahnalashtirilgan va namoyish etilgan.

Sport sohasiga mahalliy byudjetdan yo'naltirilgan mablag'lar miqdori 70,9 mlrd so'mni (2021-yilga nisbatan 123 foiz) tashkil etgan. Sport tizimidagi muassasalarda mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi va ajratmalarni moliyalashtirishga 2022-yilda 53,4 mlrd so'm yo'naltirilgan va bu xarajatlar sport sohasiga sarflangan jami mablag'larning 75,4 foizini tashkil qilgan.

6-jadval: 2020–2022-yillarda Jizzax viloyati mahalliy byudjetidan sport sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar (mlrd so'mda)

№	Soha va yo'nalishlar	2020	2021	2022	O'zgarish (foizda)	
					2020-yilga nisbatan	2021-yilga nisbatan
1.	Sport maktablarini saqlash xarajatlari	24,9	32,4	43,8	176%	135%
2.	Ixtisoslashtirilgan sport maktablarini saqlash xarajatlari	11,1	14,6	17,2	155%	118%
3.	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi	0,8	6,0	3,6	447%	59%
4.	Futbol akademiyalarini saqlash xarajatlari	3,4	4,4	4,8	142%	109%
5.	O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati saqlash xarajatlari	0,3	0,4	0,4	158%	108%
6.	Chavandozlar maktablarini saqlash xarajatlari	-	-	0,9		
7.	Boshqa sport muassasalari va tadbirlari xarajatlari			0,1		
	Jami xarajat	40,5	57,8	70,9	175%	123%

Sarflangan mablag'larning samarasi o'laroq viloyat sportchilari tomonidan 2022-yilda O'zbekiston chempionati (kubogi)da 1963 ta (581 ta oltin, 555 ta kumush, 827 ta bronza), Jahon, Osiyo va xalqaro sport musobaqalarida 469 ta (159 ta oltin, 141 ta kumush, 169 ta bronza) medal qo'lga kiritilgan.



Sog'liqni saqlash sohasiga 996,0 mlrd so'm ajratilgan bo'lib, mahalliy byudjet xarajatlaridagi ulushi 25,3 foizni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan 169,0 mlrd so'mga yoki 20 foizga ko'p mablag'lar ajratilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi muassasa va tashkilotlarda mehnat qilayotgan xodimlarning ish haqi va ajratmalarini moliyalashtirishga 770,7 mlrd so'm yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga asosan tasdiqlangan sog'liqni saqlash sohasiga doir Davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlarga 2022-yilda 62,8 mlrd so'm ajratilib, shundan 60,0 mlrd so'm moliyalashtirilgan.

Jumladan, onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini ta'minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari ("K" vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo'shimcha ta'minlash dasturi ijrosiga 200 million so'm o'zlashtirilgan. 2022-yilda go'daklar o'lim koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan o'lim holatlari 0,3 foizga kamaygan.

Shuningdek, endokrinologik kasalliklarga chalingan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlashga doir xarajatlarga 1,5 mlrd so'm sarflangan. Qandli diabetning I va II turi bilan kasallangan bemorlarni insulin preparatlari bilan ta'minlash rejasi to'liq bajarilgan. Qandli diabetning 1-turi bilan kasallangan 3875 nafar bolalar va o'smirlar kerakli dori vositalari bilan to'liq ta'minlangan.

Hisobot davrida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining hududiy bo'limlariga "Koronavirus"ning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olishga, shuningdek vaksinalar xarid qilishga jami 33,5 mlrd so'm yo'naltirilgan.

Ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam, kompensatsiya to'lovlariga mahalliy byudjetdan hisobot davrida 627,9 mlrd so'm mablag' ajratilib, jami xarajatlardagi ulushi 15,9 foizdan iborat.

Mazkur xarajatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-avgustdagi PQ-4797-son qaroriga asosan 2021-yildan boshlab respublikaning barcha hududlaridagi kabi Jizzax viloyatida ham kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam va bolalar nafaqasini "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali tayinlash va to'lash joriy qilingan.

Yil boshiga nisbatan nafaqa oluvchi oilalar soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6277-son Farmoniga asosan yangilangan turidagi nafaqa oluvchi oilalarni inobatga olgan holda, 1,6 barobarga oshib 110,6 mingga yetgan.

Iqtisodiyot sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar hisobot davrida 408,8 mlrd so'mni tashkil qilib, mahalliy byudjet xarajatlarining 10,4 foizini tashkil etgan va asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

- suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari – 121,3 mlrd so'm, iqtisodiyot xarajatlaridagi ulushi 29,7 foiz;
- aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish xarajatlari – 158,4 mlrd so'm, ulushi 38,7 foiz;
- tabiatni muhofaza qilish – 10,0 mlrd so'm, ulushi 2,4 foiz;
- uy-joy kommunal ishlariga – 3,1 mlrd so'm, ulushi 0,7 foiz.

Hisobot davrida investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishga mahalliy byudjet xarajatlarining 9,8 foizi yoki 386,0 mlrd so'mi sarflangan.

Ushbu ajratilgan mablag'lar evaziga 2022-yilda umumta'lim maktablari bo'yicha 3374 o'rinli 5 ta yangi asosiy bino va 41 ta obyektni rekonstruksiya qilish orqali 4348 o'rinli qo'shimcha binolar qurilgan hamda 3110 o'rinli mavjud o'quv bloklari rekonstruksiya qilingan, 3918 quvvatli 8 ta mavjud obyektlar mukammal ta'mirlangan, 9 ta umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarga sport zallar qurilishi yakunlangan. 2022-yil Dastur doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan 54 ta umumta'lim maktabi foydalanishga topshirilgan.

Shuningdek, 11 ta maktabgacha ta'lim muassasasida qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun 33,3 mlrd so'm sarflangan. 12 ta tibbiy-ijtimoiy muassasalarni qurish-ta'mirlash ishlari uchun 80,1 mlrd so'm sarflangan. Dastur doirasida 12 ta tibbiyot muassasasidan 7 tasi foydalanishga topshirilgan.

Bundan tashqari, 2 ta jismoniy tarbiya va sport muassasasida qurish, rekonstruksiya qilish hamda mukammal ta'mirlash ishlariga 20,9 mlrd so'm hamda 1 ta madaniyat va san'at muassasasini qurish-ta'mirlash ishlari uchun bajarilgan ishlarga muvofiq 10 mlrd so'm yo'naltirilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati boshqaruv organlari ta'minotiga hisobot davrida 294,2 mlrd so'm yoki jami mahalliy byudjet xarajatlarining 7,5 foizi yo'naltirilgan.

"Tashabbusli byudjet" loyihalarini moliyalashtirish manbasini shakllantirish uchun "Fuqarolar tashabbusi" jamg'armasiga tuman va shahar byudjetlarining 2022-yilgi parametrlari doirasida 74,3 mlrd so'm o'tkazib berilgan. Shuningdek, tuman va shahar byudjetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan jami 17,1 mlrd so'm yo'naltirilgan.

2022-yil o'tkazilgan "Tashabbusli byudjet" jarayonining 2 ta mavsumida dastlabki qiymati jami 124,7 mlrd so'mlik 164 ta takliflar g'olib deb topilgan. 80 ta umumta'lim maktablari, 9 ta maktabgacha ta'lim va 4 ta sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, 38 ta ichki yo'llarni ta'mirlash va asfaltlash, 2 ta ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash, 3 ta ko'cha chiroqlarini o'rnatish yoki ta'mirlash hamda yoritish tizimini yaxshilash loyihalari shular jumlasidan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy davlat hokimiyati organlariga davlat ijtimoiy ta'minot dasturini hududlarda amalga tatbiq etish bo'yicha muhim vazifalar yuklatilgan. Ular faoliyatining asosiy yo'nalishi o'zlariga tegishli bo'lgan hududda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir. Mazkur iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning amaldagi holati Jizzax viloyati mahalliy byudjetining xarajatlari tahlili misolida ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini isloh qilish doirasida byudjet sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ham izchil ishlar amalga oshirilib, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, 2019-yildan boshlab "Tashabbusli byudjet" dasturi joriy etilgani, qisqa muddatda o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalar aholining talab va takliflari asosida shakllantirilib, dolzarb masalalar o'z vaqtida va samarali hal etilishiga erishilmoqda. Shunga qaramasdan turli darajadagi byudjet loyihalarini ishlab chiqish va byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda jamoatchilikning ishtirokini oshirish yuzasidan qilinadigan ishlar talaygina.

Bugungi kunda konsolidatsiyalashgan byudjet hisobidan hududlar uchun mablag'larni salmoqli ulushi bevosita respublika idoralari orqali markazdan turib moliyalashtirish amaliyoti qo'llanilayotgani natijasida byudjet xarajatlarning ijrosi ustidan joriy va jamoatchilik nazoratini samarasi pastligicha qolmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra 2022-yilda respublika bo'yicha g'aznachilik organlari tomonidan 343,2 trln so'mlik konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari qamrab olingan bo'lib, ushbu xarajatlarning 40 foizi respublika, 32 foizi hududiy va 22 foizi tuman (shahar) g'aznachilik xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan.

Bunda, tuman (shahar)lar g'aznachilik bo'linmalari faqat mahalliy darajadagi tashkilotlarni saqlash xarajatlari amalga oshirish bilan cheklanib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihalar esa asosan respublika darajasida moliyalashtirilayotgani ular ustidan hududlarda deputatlik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini bermaydi.

Shuningdek, Davlat byudjeti ijrosi jarayonida respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar uchun ajratilayotgan mablag'larni e'lon qilib borish amaliyotining yo'qligi sababli, ushbu loyihalardan xalq deputatlari mahalliy Kengashlari xabardor bo'lmasligiga va mazkur mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilmasligiga olib kelmoqda.

Davlat byudjeti xarajatlari ijrosi samaradorligini oshirish, shu jumladan yoki xarajatlarni amalga oshirilishida jamoatchilikning ishtirokini kengaytirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

1. Respublika va mahalliy darajadagi davlat xarajatlarini baholash va eng muhim byudjet dasturlarining yillik baholash metodologiyasini ishlab chiqish byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.
2. Barcha darajadagi byudjetlar va jamg'armalar mablag'lari hisobidan hududlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari to'g'risida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarini xabardor qilish, birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan e'lon qilib borish amaliyotini joriy qilish.
3. Hududlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish loyihalari uchun ajratilayotgan mablag'larni tegishli tuman (shahar) g'aznachilik xizmatlari orqali moliyalashtirishni amalga oshirish orqali joriy nazorat o'rnatilishini ta'minlash.
4. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari va jamoatchilik vakillari tomonidan hududlarda tashabbusli byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ustidan doimiy jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
5. Tashabbusli byudjet loyihalari va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari sessiyalarida eshituvini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida 2021-yil 1-noyabr kuni 2022-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishi bo'yicha rasmiy-veb saytda yoritilgan materialdan <https://president.uz/uz/lists/view/4738>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 8-may kuni Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvidagi nutqidan <https://president.uz/uz/lists/view/6277>.
3. Романовский М. В. Финансы. Учебник для вузов. - Издательство "Юрайт-М", 2004
4. Сухарев О. С. Инвестиции в транзакционный сектор и в финансовые активы: влияние на экономический рост. Финансы: теория и практика/Finance: Theory and Practice. 2020;24(3):60–80. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2020-24-3-60-80>



5. Серебрякова О. В. Финансовая стабильность муниципальных образований как приоритет в развитии бюджетной и налоговой политики на местном уровне // Региональная экономика: теория и практика. -2017. - № 11. - С. 126–131.
6. Kasimova G. A., Shaakramov K. K. Mahalliy byudjetlar. O'quv qo'llanma. –T.: "Moliya", 2012. –85 b.
7. Primova N. I. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyalari shakllantirishning ilg'or xorijiy tajribalari. "Moliya va bank ishi" ilmiy elektron jurnali, 4-son. Toshkent-iyul-avgust 2020-y.
8. "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 03/21/742/1229-son.
9. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2022-yil 5-yanvardagi 1–31–5–3–0-K/22-sonli qarori.
10. Jizzax viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari.
11. <https://president.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
12. <https://www.imv.uz> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

